

Mavzu: Maxsus fanlarni modulii o'qitish texnologiyalari.

Kompyuterli o'qitish texnologiyasi

Reja:

- 1. Modulli o'qitish texnologiyasi haqida umumiy tushuncha.**
- 2. Maxsus fanlarni modulli o'qitish texnologiyalari**
- 3. Kompyuter texnologiyalari haqida umumiy tushunchalar**
- 4. Kompyuter texnologiyalari bilan dars o'tish usullari.**

«Modulli o‘qitish» termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog‘liq bo‘lib («modul», lat. modulus), uning bitta ma‘nosi faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma‘noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modulli dars ta'rifi. O'qituvchini an'anaviy darsga tayyorlash, odatda, o'quv materialini atroflicha tanlash, unda mantiqiy aloqalarni o'rnatish, uni ko'rgazmali idrok qilish uchun qulay bo'lgan chizmalı ko'rinishda jamlashdan iborat. Bu holda o'quvchilar berilgan o'quv mazmunni yengil o'zlashtirishi mumkin, biroq, bunday material ijodiy shaxs salohiyatini rivojlantirishga imkon bermaydi. Hozirgi kunda ijodiy ishlovchi o'qituvchilar o'z amaliyotida innovatsion pedagogik o'qitish texnologiyalaridan foydalanadi.

Modulli o‘qitish – bu pedagogik texnologiyalardan biri. U bir vaqtda o‘quv jarayonini jadallashtirish, o‘qitish maqsadlarini qo‘llashda yaxlitligini ta‘minlash, o‘quvchilarning bilish va shaxsiy sohalarini rivojlantirishga imkon beradi. Mazkur texnologiya o‘qitish natijasida o‘quv, ilmiy-ommabop adabiyotlar va ma‘lumotlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar tomonidan bilimlarning egallanishiga asoslanadi. Modulli texnologiya mustaqil boshqarish uchun keng imkoniyatlarga ega o‘quvchining bilish faoliyatini qat’iy boshqarishga imkon beradi.

auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini, ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual hamda mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni optimallashtirish.

fanlar va modullar bo'yicha o'qitish uzluksizligining taminlanishi

modullararo metodik jihatdan asoslangan muvofiqlik o'rnatilishi

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi

axborotni «siqib» berish natijasida o'qitishni jadallashtirish

talabalarning qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi

fanning modulli tuzilishi tarkibining moslashuvchanligi

Loyixaviy ta'lim texnologiyalari.

Modullni loyixalash.

Modull, Modull birlik, Modullni mustaxkamlash
tushunchalari.

O'quv-tarbiya jarayonida
kompyuterlar asosan to'rt
tartibda qo'llaniladi.

passiv qo'llash - kompyuter oddiy
hisoblagich kabi

reaktiv muloqot - kompyuter imtihon oluvchi
sifatida

faol muloqot - kompyuter talabaga
yo'l-yo'riq berish va uni bilimni
nazorat qilish (imtihon)da

Tizimli yondashuv o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni ifodalaydi. Bu har bir o'quvchining ish joyi kompyuter bilan jihozlangan bo'lib, o'qituvchining ishchi joyi bilan aloqada bo'ladi. Bunda elektron o'quv qo'llanmalar foydalaniladi, kompyuter yordamida o'qituvchi va o'quvchining interfaol muloqoti amalga oshiriladi, elektron sinf jurnali yuritiladi, o'quv jarayonini elektron monitoringi olib boriladi, o'quvchilarni masofali o'qitish imkoniyati mavjud bo'ladi. O'qitishda AKTdan foydalanish an'anaviy tizimga nisbatan, birinchidan, talabada ilmga qiziqishning oshishi, o'quv jarayonini jadallashtirish, talabalar ijodiy faoliyatining o'sishi, bilim berishda tabaqalashgan yondashish, olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va nazorat qilishni yengillashtirish, talabani o'quv jarayonining subyektiga aylantiradi.

AKT ni qo'llash muammolari. Asosiy qiyinchilik o'quv materialini izlash va tayyorlash hisoblanadi. Tayyor disklardan foydalanish to'g'ri kelmaydi, chunki har bir o'qituvchining o'z uslubi mavjud. Bu vaziyatdan chiqish yo'llaridan biri o'qituvchi tomonidan alohida mavzuli modullar, tarkibiy qismlar ko'rinishida alohida fayllarda (jpg, txt, html, avi, mp3, gif va sh.k.) ishlab chiqishdir. Ular o'qituvchi uchun materiallarning elektron kutubxonasini, ya'ni mediatekani tashkil etishda az qotishi mumkin. Turli fanlarni o'qitishda AKT ni foydalanishni mos texnik bazasiz, dasturiy ta'minotsiz va Internetga ulanmasdan hamda o'qituvchining kompyuterda yetarlicha darajada ishlash ko'nikmasiga ega bo'lmay, amalga oshirib bo'lmaydi.

- **Компьютерлаштирилган ўқитиш технологияси**

- – бу компьютердан фойдаланишга асосланган ўқитишдир. Ўқитишнинг компьютер технологияси янги ахборот технологияларнинг бир туридир. Ахборот технологияларда бундан ташқари бошқа ахборот воситалари (телевидение, видео ва бошқалар) ишлатилиши мумкин. Компьютер технологиялари дастурлаштирилган ўқитиш ғояларини ривожлантиради, замонавий компьютерлар ва телекоммуникацияларнинг йирик имкониятлари билан боғлиқ бўлган ўқитишнинг мутлақо янги ҳали тадқиқ қилинмаган технологик вариантларини очиб беради.

- **Ўқитишнинг компьютер технологияси,** компьютернинг инсон индивидуал қобилиятларига мослигига таянади. Ўқитиш жараёнини оптимал даражада тезкор бошқариш имконияти мавжудлиги, бу ўқитишнинг турининг универсал мулоқоти кўринишида эканлиги, психологик қулайликлари, ўқитишнинг чекланмаганлиги билан ажралиб туради. Компьютерли ўқитиш технологияси мазмун жиҳатдан компьютер хотирасига киритилган педагогик дастурий воситалар билан фарқланади. Дастурий воситалар мавзу, бўлим ёки бутун ўқув фани бўйича тузилиши мумкин ва у ўқув материали ўзлаштирилиши диагностикаси баҳолашни ва мониторингини ҳам ўз ичига олади. **Компьютерли ўқитиш технологиясининг самарадорлиги дастурий воситаларнинг ишлаб чиқилиш даражаси билан бир қаторда ўқув жараёнини ва ишчи ўринларини тўғри ташкил этилганига боғлиқ бўлади**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2011 yil.
2. Karimov I.A “Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch” T. “Ma'naviyat” nashriyoti 2008 yil.
- 3 . Avliyoqulov N.X., Musaeva N.N. “Kasb-hunar kollejlarida kasbiy fanlarning modulli o‘qitish texnologiyalari”., -Toshkent. 2003 yil
4. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent.: M oliya. 2003.
5. Ismailova.Z.Q, Himmataliyev.D.O va boshqalar “ Kasbiy pedagogika” Toshkent 2014.
6. Ismailova.Z.Q, Muqimov.B va boshqalar “ Kasbiy pedagogika ma’ruzalar matni” Toshkent 2012.